



MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM JARAYONIGA RO'LI VA 5-SINF INFORMATIKA DARSALARIDA QO'LLANILISHI

Abdullayev Ilxom Xujayorovich

samexpoler@gmail.com

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Informatika kafedrasи o'qituvchisi

Sohibova Fayyoza Siddiqjon qizi

fayyozasohibova@gmail.com

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada multimedia texnologiyalarining ta'limgarayonidagi roli va ayniqsa 5-sinf informatika darslarida qo'llanilishi yoritiladi. Maqolada multimedia vositalari orqali ta'limni interaktiv, samarali va vizual jihatdan boyitish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, konstruktivizm va kognitiv o'qitish nazariyalari asosida multimedia texnologiyalarining pedagogik va psixologik afzalliklari ko'rsatiladi. 5-sinf o'quvchilarining qiziqishi, mustaqil fikrashi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda multimedia vositalarining o'rni alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: multimedia texnologiyalari, informatika, 5-sinf, interaktiv ta'limgarayonidagi roli, vizual materiallar, o'quvchi faolligi, axborot savodxonligi.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль мультимедийных технологий в образовательном процессе, особенно в преподавании информатики в 5 классе. Анализируются возможности использования мультимедиа для создания интерактивных, наглядных и эффективных учебных занятий. Также освещаются педагогические и психологические преимущества мультимедийных средств на основе теорий конструктивизма и когнитивного обучения. Отдельное внимание уделяется повышению



интереса учащихся, развитию самостоятельного мышления и практических навыков.

Ключевые слова: мультимедийные технологии, информатика, 5 класс, интерактивное обучение, визуальные материалы, активность учащихся, информационная грамотность.

Annotation. This article explores the role of multimedia technologies in the educational process, with a particular focus on their use in teaching informatics to 5th-grade students. It analyzes how multimedia tools enhance interactivity, visual engagement, and learning efficiency. The pedagogical and psychological advantages of multimedia are discussed through the lens of constructivist and cognitive learning theories. Special attention is given to the impact of multimedia on increasing student interest, developing independent thinking, and strengthening practical skills.

Keywords: multimedia technologies, informatics, 5th grade, interactive learning, visual materials, student engagement, information literacy.

Kirish

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat hayotining barcha sohalarga keng joriy etilmoqda. Bu esa har bir shaxsning raqamli savodxonligini oshirishni dolzarb masalaga aylantirdi. Umumta'lim mакtablarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish orqali o'quvchilarda zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, boshlang'ich sinflarda, ayniqsa 5-sinfda, informatika fanining to'laqonli o'zlashtirilishi o'quvchilarning kelgusidagi bilim va ko'nikmalari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim jarayoniga multimedia vositalarini joriy etish darslarni qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil etish imkonini beradi.



Multimedia texnologiyalari yordamida ta’lim jarayonining vizual va eshitish elementlari kuchaytiriladi, bu esa o‘quvchilarning axborotni tezroq qabul qilishi, eslab qolishi va amaliyotda qo‘llashiga xizmat qiladi. PowerPoint, Scratch, LearningApps, Wordwall, Camtasia Studio kabi dasturiy vositalar 5-sinf informatika darslarini multimedia asosida o‘qitish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqola 5-sinf informatika darslarida multimedia texnologiyalarining o‘rni, ularning pedagogik asoslari va amaliy qo‘llanilishi haqida keng yoritadi.

Multimedia texnologiyalarining ta’limdagi umumiy roli

Multimedia so‘zi lotincha “multi” (ko‘p) va “media” (vosita) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, turli axborot vositalarini birlashtirgan tizim yoki kontentni anglatadi. Multimedia tushunchasi 1990-yillarning boshlarida hayotimizga kirib keldi. Mutaxassislarning ta’riflarini umumlashtirganda, multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnik vositalari asosida axborotning an’anaviy va original shakllari orqali o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazishning mujassamlashgan ko‘rinishidir. Multimedia vositalari matn, rasm, video, audio, animatsiya va grafikalar kabi turli axborot shakllarini birgalikda ishlatish imkonini beradi. Bu vositalar ma’lumotlarni qiziqarli, tushunarli va interaktiv shaklda taqdim etish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ta’lim, biznes, san’at va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi. Multimedia tizimlarining asosiy xususiyati – turli formatdagi ma’lumotlarni bir joyda jamlab, foydalanuvchiga samarali va ko‘ngilochar tarzda taqdim etishdir. Bu tizimlar foydalanuvchiga faqat passiv tomoshabin bo‘lib qolmasdan, ma’lumotlarni o‘rganish, tanlash va boshqarish imkonini beradi.

Multimedia texnologiyalari ta’lim jarayonida keng qo‘llanilishi zamонавиylar ta’limning ajralmas qismiga aylandi. Ushbu texnologiyalar matn, rasm, audio, video va interaktiv elementlarning integratsiyasi orqali ta’lim mazmunini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Multimedia vositalari o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, tushunishni mustahkamlash va muhim kompetensiyalarni rivojlantirishda



muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, axborot savodxonligini oshirish – ya'ni ma'lumotlarni topish, baholash va to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish – bugungi kunda ta'lim muassasalari uchun dolzarb masaladir.

Ta'limda multimedia texnologiyalarining qo'llanilishi kompyuter va internet texnologiyalarining rivojlanishi bilan boshlandi. Bu jarayon ta'limning interaktiv va student-markazlashgan usullariga o'tishga imkon berdi. Hozirgi kunda pedagoglar va tadqiqotchilar multimedia vositalarini ta'lim jarayoniga mos tarzda integratsiya qilish bo'yicha turli metodikalarni ishlab chiqmoqda. Bu metodikalar o'quvchilarning turli o'quv uslublariga moslashish va ularning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, ADDIE modeli multimedia ta'limining samaradorligini oshirishda keng qo'llanilmoqda.

Biroq, bu sohada muammolar ham mavjud. Texnologiyalarga tengsizlik (digital divide), o'qituvchilarning malakasini oshirish zarurati va multimedia kontentini ishlab chiqish bo'yicha metodikalarni takomillashtirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu tadqiqot multimedia vositalarining pedagogik asoslarini tushuntirish, axborot savodxonligini rivojlantirish uchun multimedia texnikalarini ishlab chiqish va amaliy usullarni o'rGANISHGA qaratilgan.

Multimedia texnologiyalarining pedagogik asoslarini tushunish uchun ularning ta'limdagi ro'li va imkoniyatlarini aniqlash zarur. Multimedia vositalari matn, rasm, audio, video va interaktiv elementlarni birlashtirib, ta'lim mazmunini boyitadi. Bu vositalar ta'lim jarayonini qiziqarli, motivatsiyali va o'quvchilarning tushunishini osonlashtiradi.

Multimedia texnologiyalarining samaradorligini oshirishda pedagogik va psixologik nazariyalar muhim ahamiyatga ega. Konstruktivizm modeliga ko'ra, o'quvchilar yangi ma'lumotlarni mavjud bilimlari bilan bog'lab, mustaqil fikrlash va muammo yechish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Multimedia vositalari bu jarayonni interaktivlik orqali qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, kognitiv multimedia ta'lim nazariyasi vizual va auditoriy ma'lumotlarni bir vaqtida taqdim



etish orqali tushunishni soddalashtiradi. Bu nazariyaga ko‘ra, insonlar ma’lumotlarni ko‘rish va eshitish kanallari orqali qabul qiladi, shuning uchun multimedia vositalari ta’limda muhim ahamiyatga ega. Multimedia vositalari ta’lim mazmunini o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va o‘quv uslublariga moslashtirish imkonini beradi. O‘qituvchilar ta’lim maqsadlariga mos ravishda multimedia kontentini tanlaydi va uni moslashtirilgan shaklda taqdim etadi. Bu jarayon interaktiv va qiziqarli darslarni tashkil etishga yordam beradi. Multimedia vositalari o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Interaktiv testlar, muammoli vazifalar va onlayn platformalar orqali o‘quvchilar bilan muloqot tashkil qilinadi, bu esa ularning darsga qiziqishini oshiradi va o‘quv natijalarini yaxshilaydi.

Multimedia texnologiyalarini samarali qo’llash uchun o‘qituvchilarning texnologik kompetensiyasini oshirish zarur. Maxsus treninglar va metodik qo’llanmalar o‘qituvchilarga multimedia vositalaridan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

5-sinf informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda multimedia texnologiyalari yosh o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, tushunishni rivojlantirish va amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Multimedia vositalari murakkab tushunchalarni vizual va audiovizual materiallar yordamida sodda va aniq tarzda tushuntirish imkonini beradi. An’anaviy ta’lim usullari darsliklar va o‘qituvchi nutqiga asoslangan bo‘lib, interaktivlikni cheklaydi. Multimedia vositalari esa o‘quvchilarga ko‘rish, tinglash va faol ishtirok etish orqali bilim olish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, multimedia yordamida ta’lim o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, bilimlarni uzoq muddatli esda saqlashni ta’minlaydi va raqamli kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Multimedia texnologiyalarining joriy etilishida texnologik infratuzilmaning yetishmasligi, o‘qituvchilarning tayyorgarligi va o‘quv dasturlariga integratsiya bilan bog‘liq muammolar mavjud. Ushbu muammolarni hal qilish uchun o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar va zamonaviy infratuzilma yaratish zarur.



Multimedia vositalari yordamida algoritmlar, dasturlash asoslari kabi murakkab tushunchalar diagrammalar, animatsiyalar va videolar orqali sodda va aniq tarzda tushuntiriladi. Bu yosh o‘quvchilarning diqqatini jalg qiladi va tushunchalarni chuqur anglashga yordam beradi. Multimedia vositalari o‘quvchilarga o‘z tezligida o‘rganish imkonini beradi. Bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Taqdimotlar, animatsiyalar, videolar va interaktiv platformalar mavzuni qiziqarli va tushunarli qiladi. Masalan, “Kompyuter tarmoqlari” mavzusida virtual tarmoqlarni vizual tarzda ko‘rsatish o‘quvchilarning tushunishini osonlashtiradi. Onlayn testlar, videolar va o‘quv o‘yinlari kabi qo‘srimcha resurslar o‘quvchilarga mavzuni chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Nazariy va amaliy yondashuvlarning muvozanati 5-sinf informatika darslarida muhim ahamiyatga ega. Nazariy yondashuv algoritmlar, ma’lumotlar bazasi va dasturlash asoslari kabi tushunchalarni tushuntirishga qaratilgan bo‘lsa, amaliy yondashuv o‘quvchilarga ushbu bilimlarni virtual laboratoriylar va interaktiv platformalar orqali qo’llash imkonini beradi. Masalan, Scratch kabi vositalar yordamida o‘quvchilar dasturlashni o‘rganib, o‘z loyihibarini yaratadilar. Muvozanatni ta’minalash uchun o‘qituvchilar nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘lashi kerak. Bu jarayon o‘quvchilarning bilimlarni amalda qo’llash, kreativ fikrlash va muammo yechish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot 5-sinf informatika va axborot texnologiyalari fanini multimedia yordamida o‘qitishning afzalliklarini chuqur tahlil qildi. Multimedia ta’limi vizual, audial va interaktiv elementlar orqali o‘quvchilarning diqqatini jalg qiladi va bilim olish jarayonini samarali qiladi. Nazariy va amaliy yondashuvlarning muvozanati o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini



rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari multimedia ta'limining o'quvchilar ishtirokini 30% ga oshirganini va test olimpiadalarida muvaffaqiyatni 15% ga yaxshilaganini ko'rsatdi. Texnologik infratuzilma va o'qituvchilar malakasini oshirish muvaffaqiyatli integratsiya uchun zarur shartlardir. Multimedia yordamida ta'lim yosh avlodni raqamli dunyoga tayyorlashda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia Learning*. Cambridge University Press.
2. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). *E-Learning and the Science of Instruction*. Wiley.
3. Jonassen, D. H. (2000). *Computers as Mindtools for Schools*. Prentice Hall.
4. Kozma, R. B. (1994). *Will Media Influence Learning?*. Educational Technology Research and Development, 42(2), 7-19.
5. Abdullaev, T. (2021). *Informatika o'qitishda interaktiv metodlar*. Toshkent: O'qituvchi Nashriyoti.
6. To'xtaxodjaeva, M. (2018). *O'zbekistonda axborot texnologiyalarni ta'limda qo'llash*. Toshkent: Fan va Texnologiya.
7. Qodirov, A. (2020). *Informatika o'qitishda zamonaviy texnologiyalar*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
8. Xolmurodov, R. (2019). *Ta'limda raqamli resurslardan foydalanish*. Toshkent: Akademnashr.
9. Гриншун, В. В. (2012). *Мультимедиа в образовании: теория и практика*. Москва: Академия.



10. Полат, Е. С. (2006). *Новые педагогические и информационные технологии в системе образования*. Москва: Академия.
11. Abdullaev I. H., Anarbaevna E. K. The Role of Computers in Modern Education //Journal of science, research and teaching. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 51-53
12. Роберт, И. В. (2010). *Современные информационные технологии в образовании*. Москва: Школа-Пресс.
13. Уваров, А. Ю. (2008). *Информатизация образования*. Москва: Просвещение.